



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Yetmisheva Dilorom
G'ulomovna

Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy
markazi o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA MA'NAViy-AXLOQIY VA PSIXOLOGIK TAYYORLASH YO'LLARI

Maqolada ta'lim jarayonida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga ma'naviy-axloqiy va psixologik tayyorlashning dolzarbligi ochib berilgan. Shuningdek, unda ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash yo'llari aniq misollar orqali batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kasb, kasb-hunar, maktab, mehnat bozori, mehnat faoliyati, o'qitish, o'quvchilar, tayyorlash, yoshlar.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida ta'kidlaganidek: "... maktablarning asosiy vazifasi bolani ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash emas, balki bolani hayotga tayyorlash kerak".

Shu boisdan ham muhtaram Prezidentimizning 2022-yil 22-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida maktab o'quvchilarini kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish ustuvor vazifa etib belgilandi. Mazkur vazifa ijrosiga bag'ishlab 2023-yil 20-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi.



Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'limga, o'qituvchilarga e'tibor oshdi, oliy ta'limda qabul soni va yo'nalishlar ko'paydi. Lekin maktablardagi sifat hali talab darajasiga chiqqani yo'q. Masalan, 11 yil maktabda o'qigan bola chet tilini mukammal bilmaydi. Sharoit va mutaxassislar yo'qligi sababli yoshlarni kasblarga qiziqtirish muhiti shakllanmagan. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelmoqda.

Shu bois yig'ilishda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari muhokama qilindi.

– Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug'i, bilmagani muammo, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu tajribani joriy etish uchun har bir viloyatdan bittadan shahar va ikkitadan tuman tanlab olingan. Ulardagi 2 mingdan ortiq maktablarning sharoiti, pedagoglar malakasi, o'quvchilarning kasb-hunar va xorijiy tillarga qiziqishi o'rganilgan.

Endi tuman va mahallalarning xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilar maktabning o'zida 64 xil ishchi kasblarga o'rgatilishi ko'zda tutilmoqda.

Shu bois hokimliklarga ushbu tanlab olingan maktablarda kasb-hunar ustaxonalari tashkil etish, ularni jihozlash va zarur ashyolar bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Bunga yoshlar yetakchilari va tadbirkorlar ham jalb etiladi, Yoshlar jamg'armasidan mablag'lar yo'naltiriladi.

– Hozir tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilarni shu masala qiynayapti: bo'sh ish joyi ko'p, oyligi ham yaxshi, lekin o'quvi va ko'nikmasi bor ishchi yo'q. Agar bu tizim to'g'ri tashkil qilinsa, bizdagi demografik o'sish bilan katta natijalarga erishsa bo'ladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz 2023-yil 1-fevral kuni Andijon viloyatiga tashrifi davomida:

– E'tibor bersangiz, kasb egallamay o'qishni bitirganlar hayotda qiynaladi, ish topolmaydi. Kimning qo'lida hunari bo'lib, chet tilini bilsa, yo'li ochiq. Sizlarda shunday imkoniyat bor. O'zingizni qiynab, qunt bilan bilim oling, hunar o'rganing. Qarorlar, sa'y-harakatlar qachon natija beradi? Mutaxassis zo'r bo'lsa. Investorlar ham kadrlarning bilim va malakasiga ishonib keladi. Mamlakatimizning eng katta boyligi – yoshlar, – deb alohida ta'kidladi.

Shuning uchun ham yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash, ularning g'oyaviy-axloqiy va shaxs sifatida chiniqishi ishlarini kompleks tashkil etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabning asosiy vazifasi jamiyatga har tomonlama rivojlangan o'quvchilarni yetishtirish, ularni kasbiy tarbiyalashdir.

Kasb-hunarga ma'naviy va psixologik tayyorlash o'zining real bazasiga, ya'ni kasb-hunar haqidagi bilim, ko'nikma va amaliy malakalar majmuasiga ega bo'lishi kerak. Agarda bola kasb-hunarga o'rgatilmagan bo'lsa, uning uchun mehnat faoliyati maqbul mashg'ulotga aylanmaydi, unda kerakli ijobiy emotsiyalarni va boshqa psixologik ko'rinishlarni keltirib chiqara olmaydi.

Kasb-hunar insonda eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Kasb-hunarga tayyorlash, kasbiy tarbiyalash jarayonida kasbga psixologik tayyorlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli kishi uchun zarur bo'lgan axloqiy sifatlari shakllanadi. Darslarning jihozlanganligi o'quvchilarda kasb madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo'pol, og'ir va yoshlariga nomuvofiq asboblardan shug'ullansalar, ish natijalari ko'ngildagidek bo'lmaydi. Bunday sharoitda, tabiiyki, mehnatga muhabbatni, tartiblilikni, aniqlikni, asboblarga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash qiyin bo'ladi.

O'quvchilarda kasbiy madaniyatning tarkib topishi uchun darslarda doimo ularning e'tiborini asbob va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'g'ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlari me'yori va



sur'atiga, ish sifatini ta'minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilishga va nihoyat, narsani chiroyli qilib bezashga o'rgatib borish kerak. Bunda texnologiya o'qituvchilariga muayyan talablar qo'yiladi.

Texnologiya fani o'qituvchisining pedagogik madaniyati yuksak darajadagi ishlab chiqarish va ilg'or texnologik tajribaga asoslanadi hamda bu ma'lum darajada o'qituvchilarning ushbu toifalarini saqlab qolish kafolatini beradi. Shuningdek, amaliyot va ta'lim muassasasi oralig'ida o'qituvchining qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan asosiy qarama-qarshiliklarning yechimini ta'minlaydi. Shuning uchun u o'qituvchi, tarbiyachi va bo'lg'usi mutaxassislar shaxsining murakkab ijtimoiy tavsifini ifodalaydi. Fan o'qituvchisidan farqli tarzda ishlab chiqarish ustasi o'z umrini ushbu kasb bilan bog'lagan bo'ladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga axloqiy tayyorlash deganda eng avvalo kasbga ongli munosabatni shakllantirish tushuniladi. Kasbga munosabat esa shu kasbning muhimligi va zarurligini tushunish, bunday kasbda jonbozlik ko'rsatish, ishga shaxsan mas'uliyatni his qilgan holda yondashish ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. Kasb-hunarga psixologik tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash, psixomotor, emotsional-idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi jarayonlardir.

Kasb-hunarga psixologik tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u butun kasb-hunar ta'limi va tarbiyasiga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, kasb-hunar ga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir. Bolani kasb-hunarga psixologik tayyorlash – bu unda kasb-hunarga nisbatan uning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab kasb-hunar – bu har bir shaxsning vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z kasbi bilan faxrlanishini, faqat Vatan ravnaqi va xalq farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi sifatleri rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligini anglashlariga yordam berishdir. O'quvchilarning mehnatga qobiliyati – har bir kishi jamiyatning hayoti va faoliyati, uning farovonligi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashishi zarurligini anglashlari juda muhimdir.

Ayniqsa, yoshlarga kelajakda kerakli turli kasb-hunar sirlarini o'rgatishga alohida ahamiyat qaratish lozim. Mazkur yo'nalishda oshpazlik, tikuvchilik, milliy qo'g'irchoqlar yasash, karvin san'ati, robototexnika, ayollar va erkaklar sartaroshi, munchoqli bezaklar, sovundan gullar yasash kabi 10 dan ortiq to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yish mumkin. E'tiborli tomoni to'garaklarda kasb-hunar sirlarini o'rganayotgan o'quvchilarning aksariyati bu yo'nalishda qo'shimcha daromad ham topishlari mumkin.

Ayni paytda ular oddiy surp matosidan guldor bejirim ro'molchalar tikishi, qadoqlash, dazmollash va tikish jarayonlarining barchasini o'quvchilar shu yerning o'zida mustaqil ravishda bajarishlari mumkin. Shuningdek, to'garak jarayonida turli pishiriqlar va taomlar tayyorlash ham o'rgatib boriladi. Bugun tikuvchilikda yaxshigina mahorat egasiga aylangan to'garakning faol a'zosi shu hunari ortidan yaxshigina daromad topadi. Shuningdek, maktablarda "Ayollar sartaroshligi" va "Erkaklar sartaroshi" to'garaklarini tashkl etish orqali ham o'quvchilar kasb-hunar egallash bilan bir qatorda qo'shimcha oylik daromadga ega bo'lishlari mumkin.

Xulosa qilib autganda, yuqoridagi yo'llar orqali biz bolalarimizning mehnat ko'nikmalarini maktab davridan boshlab shakllantirib borishi, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik



fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish kabi ustuvor vazifalarning sifatli amalga oshirilishiga puxta zamin yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston xalqiga Murojaatnoma. “Xalq so'zi” gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, 272-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 11-may, PF-134-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021-yil 8-iyun, PQ-5140-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. – Toshkent, 2021-yil 30-dekabr, 792-son.
7. Texnologiya fanidan uzluksiz ta'limning Milliy o'quv dasturi. – T.: Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.
8. Teshaboyev Z.A. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish: umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya fani o'qituvchilari, texnologiya fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi tinglovchilari uchun o'quv qo'llanma. – Farg'ona, “Classic” nashriyoti, 2022.
9. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. –T.: O'zPFITI, 2004.